

Servis xizmati bo'yicha iste'molchilardan tushadigan savollar?

- 1.Uyimga gaz hidi chiqmoqda kimga murojaat qilsam bo'ladi?
- 2.Yangi xonadonga gaz jihozlarini o'rnatish yoki eski gaz jixozlarimni yangisiga almashtirishim kerak kimga murojaat qilishim kerak?
- 3.Gaz tarmog'iga ularish uchun loyiha xujjalari tayyorlashda gaz ta'minot filiallarda qanday imkoniyat yaratilgan?
- 4.Loyixa xujjalari qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish gaz ta'minot bo'limlarda mavjudmi?
- 5.Gaz jixozlarida nosozliklar mavjud oshxona buyumlarini gaz qoraytirib yubormoqda shuni bartaraf etishga yordam berish.
- 6.Qo'shni xonadonda gaz bosimi yaxshi lekin bizda juda past yonadi nima qilish kerak?
- 7.Yangi qurilgan ko'p qavatli uylardan gaz jixozlarini o'rnatish va ishga tushirish yordam berish?
- 8.Xonadonda eski nostandard gaz jixozlari mavjudligini aytishdi shu sababli gaz tarmog'idan uzib qo'yishmoqchi shu to'g'rimi?
- 9.Gaz xodimlari kelib dudbo'ron serifikati mavjud emasligi sabab gaz tarmog'idan uzib qo'yishmoqchi shu to'g'rimi?

Servis ximatlarini ko'rsatish to'g'risida MA'LUMOT

Tabiiy gazning boshqa turdag'i yoqilg'ilardan qator afzallikkleri mavjud bo'lib, masalan, narxining maqbulligi, maishiy hayot hamda sanoatda keng va xilma-xil maqsadlarda qo'llash imkoniyati mavjud. Undan isitishda, taom tayyorlash va boshqa zarur ehtiyojlar uchun foydalaniladi. "Zangori yoqilg'i" xonadonlarimizning issiq bo'lishi va turmushimiz uchun qulaylik yaratishi bilan birga biz - iste'molchilarga katta mas'uliyatni ham yuklaydi.

Shuni yodda tutish kerakki, gaz ta'minoti - o'ta yuqori xavfga ega soha ekanligi uchun diqqatni talab etgan holda, doimiy profilaktik va texnik xizmatga muhtoj, agar uy egasi buni shunchaki e'tiborsiz qoldirsa, demak u o'z oila a'zolari va atrofdagilarning hayoti va xavfsizligiga tahdid soladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.01.2018 yildagi 22-sonli "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorining 135-bandidagi z) kichik bandiga asosan gaz ta'minoti tashkiloti tomonidan tasdiqlangan jadvallar va tariflar bo'yicha iste'molchilarning gaz tarmoqlari va gazdan foydalanish uskunalarini quyidagi muddatlarda texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktik xizmat ko'rsatish belgilangan:

Ko'p qavatli turar joylardagi gaz plitalari, boshqa gaz priborlari mavjud bo'lmagan-ikki yilda bir marta;

Turar joylardagi gaz plitalari, isitish, suv isitish priborlari-yilda bir marta, profilaktik xizmat ko'rsatish – xar bir isitish mavsumi boshlanishidan avval.

Ushbu qarorda belgilangan iste'molchi hamda gaz ta'minoti tashkiloti majburiyatlariga asosan texnik ko'rik hamda profilaktik xizmatlari muntazam ravishda "Hudugazta'minot" AJ tomonidan ko'rsatilishi yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyati boshqa qator ixtiyoriy xizmat turlarini ham taklif etadi.

"Hudugazta'minot" AJ va uning tizimdag'i tarkibiy bo'linmalarida xizmat ko'rsatish sifati hamda samaradorligini oshirish uchun servis xizmatini rivojlantirish bo'limlari tashkil etildi. Hozirda ular malakali mutaxassislar bilan ta'minlanib, "Hudugazta'minot" AJga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish imkonini yaratmoqda. Uch mingdan ortiq malakali mutaxassislar tomonidan gaz jihozlariga texnik va profilaktik xizmat ko'rsatish, gaz tarmoqlarining zichligini tekshirib, ishga tushirish, tozalash, shuningdek, gaz maromlash punktlariga texnik va profilaktik xizmat ko'rsatish, gaz plitalari va qozonlarni o'rnatish, ularni ta'mirlash, ishga tushirish hamda qurilish-montaj ishlari, gaz tarmoqlarini loyihalashtirish va shu kabi gaz ta'minoti yo'nalishidagi boshqa texnik xizmatlar malakali chilangarlar tomonidan ko'rsatilmoqda.

Gaz jihozlariga muntazam texnik va profilaktik xizmat ko'rsatilishi orqali, iste'molchi ularning to'g'ri va xavfsiz ishlashiga ishonch hosil qilishi, xavfsizlik qoidalari bo'yicha aniq ko'rsatmalar olishi,

gaz sizib chiqishi bilan bog'liq holatlar vujudga kelsa, zudlik bilan ularni bartaraf etish orqali ortiqcha gaz sarfini oldini olish, uglerod oksidi (is gazi) qiyin so'riliishi aniqlanganda tegishli profilaktik choralar ko'rish, tasdiqlangan texnik standartlarga muvofiq gaz quvurlarini tortish loyihasini buyurtma berishi hamda gaz jihozlarini o'rnatish kabi xizmatlardan foydalanishi mumkin.

Iste'molchilar "Hududgazta'minot" AJ servis xizmatlaridan foydalanish uchun o'z arizalarini quyidagi uslublarda qoldirishlari mumkin:

- "104" raqamiga qo'ng'iroy qilib qoldirishlari;
- yashash hududlaridagi gaz ta'minoti filiallariga/bo'limalariga tashrif orqali;

-cabinetaskug.hududgaz.uz shaxsiy web kabinetningiz orqali:

The screenshot shows a user interface for a personal cabinet. On the left, there are sections for 'Account' (Account, Telephone, Internet, Bank account) and 'Address' (Region, City, District, Street, House number). The main area displays several service cards: 'Territorial and territorial departments' (M. Tashrif), 'Accounts' (Accounts, Payment period, Date), 'Payments' (Payment method, Date, Amount, Date), 'OSB' (Date, Amount, Date), 'Archived data' (Archive, Date), and 'Claims' (Claim, Description, Date). A prominent orange circle highlights the 'Balans (Kredit)' button at the bottom right, which shows a balance of 21 906.32 soums.

-Shaxsiy kabinetningizga kirdigan so'ng "Arizalar" bandiga o'tib tugmani bosasiz;

The screenshot shows the 'My claims' section. It has a header with four tabs: 'Information about the organization', 'Accounts', 'Payments', and 'Archived data'. Below the tabs, it says 'Moи заявки' (My claims). A red circle highlights the first claim card, which includes fields for 'Number of claim', 'Date of claim', 'Address', and 'Object of claim'. There are also buttons for 'Send' and 'Delete'.

-So'ngra sahifaning "Mening arizalarim" bandidagi barcha arizalarizning hozirgi holati bo'yicha ma'lumotlar aks etadi. Ushbu banddag'i tugmani bosasiz;

A modal window titled 'Выберите желаемое направление применения!' (Select the desired direction of application!) is shown. It contains three buttons: 'Отправить заявку на получение технического условия на подключение к газовым сетям' (Send a request for obtaining a technical condition for connection to gas networks), 'Согласование проекта присоединения с территориальными газоснабжающими предприятиями' (Agree on the project of connection with territorial gas supply enterprises), and 'Подача заявки на устранение неисправностей в газовых сетях' (Submitting a request for eliminating malfunctions in gas networks). The third button is highlighted with a red circle.

-“Kerakli ariza yo'nalishini tanlash” sahifasida xizmatlar uchun “Gaz tarmoqlaridagi nosoliklarni bartaraf qilish uchun ariza yuborish” tugmasini bosib keyingi sahifaga o'tasiz;

-Shart bilan kelishgandan so'ng manzil, hisob raqam, o'zingizning ism sharfingiz, hamda ulanish uchun aloqa raqamingizni qoldirib, muammoingizni yuzaki tasvirlab bersangiz bas. Qulaylik uchun xarita orqali manzilni belgilash imkoni hamda muammo bo'yicha fayl yuklash imkoni ham mavjud.

Gaz sizib chiqishi holatlari kuzatilganda hamda gaz bilan bog'liq Favqulodda Vaziyatlar yuzga kelganda "Hududgazta'minot" AJning gaz ta'minoti filiallaridagi 104 yoki Vaziyatlar markazining quyidagi raqamlariga darxol qo'ng'iroq qilib murojaat qilishlari talab etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Andijon

Buxoro

Jizzax

Qashqadaryo

Namangan

Navoiy

Samarqand

Sirdaryo

Surxondaryo

Toshkent viloyati

Farg'ona

Xorazm

Toshkent shahri

61-224-00-59

74 227-60-83

65-221-23-21

72-222-39-77

75-223-14-05

69-227-96-65

78-770-24-75

66-239-78-12

67-227-06-02

76-221-25-10

70 202-95-04

73-229-04-07

62-223-37-41

71-255-44-37